

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON VA SAUDIYA ARABISTONI O'RTASIDAGI SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI

Saydqulova Sevara Ilhomjonovna,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktaranti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.004>

Annotatsiya. O'zbekistonning mustaqillik yillarida Saudiya Arabistoni bilan olib borgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqlarining shakllanishi, hamda bugungi kunga qadar ikki davlat o'rtasidagi aloqlarning rivojlanishi yoritilgan. Xususan, xavsizlik, tashqi siyosat, investitsiya, ilm-fan, kabi masalalarga doir o'zaro aloqalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Saudiya Arabistoni, tashqi siyosat, Terrorizm, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, Nigoh - 2030" Davlat dasturi, Taraqqiyot stretegiyasi, investitsiya, energetika, "ACWA Power" kompaniyasi.

РАЗВИТИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ, ЭКОНОМИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И САУДОВСКОЙ АРАВИЕЙ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Saidkulova Sevara Ilhomzhonovna,

Докторант Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Аннотация. Освещены становление экономических, политических и культурных связей между Узбекистаном и Саудовской Аравией в годы независимости, а также развитие отношений между двумя странами до сегодняшнего дня. В частности, были проанализированы взаимоотношения по таким вопросам, как бедность, внешняя политика, инвестиции и наука.

Ключевые слова: Узбекистан, Саудовская Аравия, внешняя политика, Терроризм, экстремизм, транснациональная организованная преступность, Видение-2030 Государственная программа, Стратегия развития, инвестиции, энергетика, Компания ACWA Power.

DEVELOPMENT OF POLITICAL, ECONOMIC AND CULTURAL RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND SAUDI ARABIA DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Saidkulova Sevara Ilhomzhonovna,

doctoral student of Tashkent State Pedagogical Nizami University

ANNOTATION. The formation of economic, political and cultural ties between Uzbekistan and Saudi Arabia during the years of independence, as well as the development of relations between the two countries to this day, are covered. In particular, relationships were analyzed on issues such as poverty, foreign policy, investment and science.

Key words: Uzbekistan, Saudi Arabia, foreign policy, terrorism, extremism, transnational organized crime, Vision-2030 State program, development strategy, investment, energy, Company ACWA Power.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyo davlatlari orasida o'z o'rnnini egallab, tashqi siyosat huquq me'yorlariga asoslangan va jahon hamjamiyatining integratsiyalashuv jarayonariga mos keladigan huquqiy tizim yaratma boshladi.

Turli davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ularning geografik joylashuvi, yer osti boyliklari, aholisining turmush tarzi, e'tiqodi, urf odatidagi o'xshash jihatlari, ular o'rtasidagi xalqaro aloqalar taraqqiyotining jadal kechishini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan jihatlarni hisobga olib, O'zbekiston bilan arab dunyosi mamlakatlari bilan har tomonlama siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqlarning o'rnatilishi mamlakatlar manfaatlariga to'la mos keladi[9].

Xususan, Saudiya Arabistoni 1991-yil 30-dekabrda O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo'lib e'tirof etgan. 1992 yil 19 fevral kuni Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shaxzoda Saud al Feysal al Saud O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif O'zbekiston hamda Saudiya

Arabistonni rahbarlarining ilk tarixiy uchrashuvi sifatida davlatlarning kelgusidagi munosabatlariда yuksak ahamiyat kasb etdi. Uchrashuvda O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov mehmonni mamlakatda olib borilayotgan ishlар bilan tanishtirib, ikki mamlakat o'rtasidagi kelgusidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning rivojiga ishonch bildirdi[11]. Ushbu uchrashuv mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikning tarixiy bosqichi hisoblanib, O'zbekiston Saudiya Arabistonni o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorliklarga yo'l ochdi.

Mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida 1992 yil 11-14 aprel kunlari Saudiya Arabistonni podshosi Fath ben Abdul Aziz al Saud taklifiga binoan O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi delegatsiya ushbu mamlakatga tashrif buyurdi. Unda ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yuqori darajaga ko'tarish, o'zaro do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda iqtisodiy sohalardagi hamkorliklarga ahamiyat qaratildi.

Bu tashrifning amaliy natijasi sifatida 1992 yil noyabrda Jidda shahrida O'zbekiston Respublikasi konsulxonasi, 1995-yil may oyida Ar-Riyodda O'zbekiston elchixonasi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirining 1995 yil noyabrda Saudiya Arabistoniga qilgan tashrifi davomida savdo, iqtisod, investitsiyalar, texnika, madaniyat, sport va yoshlar ishlari sohalarida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. 1997 yil 27 martda esa Toshkentda Saudiya Arabistonni elchixonasining ochilishi mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarni yanada rivoji yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Globallashuv jarayonlarida havfsizlikni ta'minlash davlatlar o'rtasidagi dolzarb masalalalardan biridir. Xususan, O'zbekistonning Saudiya Arabistonni bilan o'zaro hamkorligining mazmuni islom dini nufuzini yanada oshirish, davlatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalarini kengaytirish, terrorizm, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog' va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi kurash kabi masalalari bilan boyidi. Ayni maqsadda 2017-yil 21-may kuni Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev Saudiya Arabistonni podshohi Salmon bin Abdulazizning taklifiga binoan mazkur davlatda bo'lib, Arab-musulmon davlatlari va AQSh sammitida ishtirok etdi. Sammitda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari va AQSh Prezidenti, BMT, Arab davlatlari ligasi, Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorligi kengashi bosh kotiblari qatnashdi.

Mazkur forum ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surish, xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash masalalariga muhakama qilindi. Ayni masalada O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining 1999-yilgi Istanbul sammitida BMT huzurida terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish g'oyasini ilgari surgan edi. 2001-yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilishi bu g'oyaning amaldagi natijasi bo'ldi. Bu borada, O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillaridanoq o'z taraqqiyot yo'lida xavfsizlik, tinchlikvapvarlik, barqarorlik va o'zaro hamkorlik siyosatini amalga oshirilgan va bugun ushbu siyosatni izchil davom ettirmoqda.

Sammit davomida Prezident Sh. Mirziyoyev iqtisodiy hamkorliklarni kengaytirish maqsadida Islom taraqqiyot banki Prezidenti Bandar Hajar bilan uchrashib, Samarqandda Imom Buxoriyning diniy-ma'naviy merosini o'rganishga ixtisoslashgan xalqaro ilmiy tadqiqotlar markazini tashkil etish yuzasidan fikr almashdi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Islom taraqqiyot banki o'rtasida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tuzish to'g'risida anglashuv memorandumi imzolandi.

Keyingi yillarda mamlakatda islohotlar eng avvalo, dunyoda shu jumladan, jahon iqtisodiyoti kon'yunkturasida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Ushbu islohatlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Biz – nizolarni urush bilan emas, tinchlik bilan hal etish yo'lini tanlaydigan xalqmiz. Biz barcha xalqlar bilan hamisha murosai madora, do'stlik va hamkorlikda yashab kelganimiz. Bugungi taraqqiyot yo'limizda ham aynan shu tamoyillarga tayanamiz"[7] – degan gaplari O'zbekistonda olib borilayotgan tashqi siyosatning asosiy tamoyilarini ko'rsatib turibdi.

Xususan, 2022 yilning 17 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Saudiya Arabistonni Podshohligiga rasmiy tashrifi chog'ida Saudiya Valiahd shahzodasi Muhammad bin Salmon Ol Saud bilan muzokaralar olib bordi. Muzokara davomida Sh. Mirziyoyev davlatlarning o'zaro qarashlari, intilishlarning mushtarakligini e'tirof etib, Saudiyaning "Nigoh - 2030" Davlat dasturining muvaffaqiyatlari amalga oshirilayotganiga yuksak baho berdi. Mazkur davlat dasturda ko'zlangan maqsad

va vazifalar 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining mohiyati bilan uyg‘unligi ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar sohalardagi o‘zaro manfaatlari aloqalarni yanada kengaytirishiga zamin yaratadi[12].

Mamlakatni rivojlantirishda 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham yetakchi davlatlar bilan keng qamrovli hamkorlikni strategik darajaga olib chiqish hamda ular bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi maqsadlar belgilangan[8].

Shu maqsadga muvofiq, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashni nazarda tutuvchi qonunlar ham qabul qilindi. Mamlakatlar o‘rtasida madaniy, ilmiy va investitsiyaviy muhitni yaxshilash, turistik salohiyatni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining 2022 yil 16 avgustdagi PF-190-sonli “Saudiya Arabiston Podsholigi fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish rejimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qonunining qabul qilinishi bu borada muhim qadamlardan biri bo‘ldi[4].

Undan tashqari, oxirigi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy sohalardagi hamkorlikning ham o‘sayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, Energetika va neft-kimyo sohalarida arab dunyosidagi yirik kompaniyalardan hisoblangan “ACWA Power” kompaniyasi bilan jami 2 milliard 600 million dollarlik yirik energetika loyhasini amalga oshirish uchun shartnoma imzolandi. Mazkur investitsiya shartnomasida issiqlik elektr stansiyasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish va korxonani 25 yil muddatga ishlatishni nazarda tutadi. Loyihaning foydalanish bosqichida 1000 dan ortiq ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, “ACWA Power” kompaniyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi o‘rtasida Navoiy va Buxoro viloyatlarida umumiy quvvati 1000 MVt bo‘lgan ikkita shamol elektr stansiyasini qurish bo‘yicha investitsiya shartnomalari imzolandi. Bu loyihalar bugungi kunda O‘zbekiston milliy energetika tizimiga elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berishni ko‘zda tutadi[10].

Hamkorlik natijasida kiritilgan investitsiyalar hisobidan Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi Buxoro viloyatining Peshku va G‘ijduvon tumanlarida har birining quvvati 500 MVtdan bo‘lgan 2 ta (jami 1000 MVt) shamol elektr stansiyasining qurilish ishlari boshlab yuborilgan. 2023 yil 25 iyul oyida loyihaning birinchi bosqichida 6,5 MVt quvvatli shamol turbinasi o‘rnatildi. 2024 yil birinchi choragiga qadar jami quvvati 474,5 MVtga teng 73 ta shamol turbinasi o‘rnatib bo‘lindi. Ushbu yirik loyiha doirasida jami 158 ta shunday shamol turbinalari o‘rnatilishi ko‘zdautilgan. Mazkur elektr stansiyalarining dastlabki 400 MVt quvvati 2024-yil yakuniga qadar ishga tushirilishi belgilangan.

Saudiya Arabiston nafaqat o‘zining iqtisodiyoti shuningdek, neft va gaz zahirasi bo‘yicha jahoning yetakchi davlarlaridan biri balki, dunyo musulmonlari uchun muqaddas bo‘lgan Makka va Madina shaharlari ega nufuzli mamlakat hisoblanadi. Dunyo aholisining 24.9% ya’ni 1.9 mlrd kishi Islom diniga e’tiqod qilib, ularning 2/3 qismi Osiyo qit’asiga to‘g‘ri keladi bu esa qat’a aholisining 20% dan ziyodini tashkil etadi[13].

Xususan, O‘zbekiston aholisining ham 94% dan ortig‘ini Islom dini e’tiqod qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, islom dini o‘zbek xalqining tarixiga, madaniyatiga hamda ruhiyatiga churuq singib ketgan.

Alloh taolo bu haqda Qur’oni karimda shunday marhamat qilgan:

الْيَبْسُ هِيَلٌ عَاطِنْسٌ اَنَّمَّ تُبْلِيْ جَحَّسٌ اَنَّلٌ عَلَّلٌ وَّ
نَارِمَعْ لَأَقْرُوسْ (97).

ya’ni: “Yo‘lga qodir bo‘lgan odamlar zimmasida Allah uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir” (Oli Imron surasi, 97-oyat).

Shu bois, Islom dinining besh farzidan biri bo‘lgan haj ziyoratiga borish har bir musulmonning yuksak maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakat musulmonlariga ushbu ziyoratni bekamuko‘st qilib ado etishlarida tayanch bo‘lib kelmoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 martdagi 172-sonli “Haj ziyoratini tashkil etish to‘g‘risida”gi, muborak haj amallarini ado etishda qulaylik, imtiyoz va zarur sharoitlarni yaratishga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 8 yanvardagi 9-sonli “Muborak haj ziyoratiga boruvchilarga yordam ko‘rsatish haqida”gi qarorlari qabul qilindi. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2017 yil 7 iyundagi 364-sonli “Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston hamda Saudiya Arabiston o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning o‘rtanatilishi

mamlakatning musulmon aholisi orasida haj ziyoratiga boruvchilar sonini keskin oshishiga sabab bo'ldi. Masalan, istiqlolning ilk yillarda ya'ni 1990 yilda 350 kishi haj safariga borgan bo'lsa, 1991 yilda 1700 nafarga oshgan 1996 yilga kelib 3500 ming iyomon-e'tiqodli fuqarolar muborak haj ziyoratini amalga oshirgan. So'nngi yillarda haj ziyoratiga borish istagini bildirganlar soni oshib borayotganini e'tiborga olib, 2017 yildan O'zbekiston fuqarolari uchun haj kvotasi 7200 nafar qilib belgilandi (ilgari bu ko'rsatkich 5200 nafar edi). Shuningdek, Respublika bo'yicha 2022 yilda 12 045 nafar ziyoratchi Haj, 61 mingdan ortiq ziyoratchi esa Umra amallarini ado etgan. Shuningdek, o'tgan yildan boshlab Umra ziyoratiga boruvchilar sonini belgilash bo'yicha kvotalar olib tashlanishi ikki mamlakat o'rtaсидаги aloqlarning yuksak natijasi deyish mumkin.

Mamlakatlar o'rtaсидаги hamkorliklarning yangi bosqichini nafaqat, iqtisodiy, siyosiy sohada balki fan va ta'lif yo'naliishlarda ham ko'zga tashanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda o'n mingdan ziyyod talaba-yoshlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tili hisoblangan arab tilini o'rganmoqda.

Ilm-fan sohasidagi tarixiy aloqalarning davomi sifatida 2020-yil sentyabr oyida Riyoz shahrida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti Universiteti va Saudiya elektron universiteti o'rtaсидаги hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti va Podshoh Abdulaziz Universiteti ham hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yildi.. 2021-yil O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan Podshoh Faysal nomidagi Islom tadqiqotlari markazi o'rtaсидаги o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Bu esa mamlakatlar o'rtaсидаги ilm-fan sohasiga doir munsabatlarning yil sayin yuksalayotganiga yaqqol misoldir.

Xulosa qilib aytganda, bugun O'zbekiston tanlagan tinchlikparvar va paragmatik tashqi siyosati mamlakatni dunyo hamjamiyatida o'rni hamda mavqeyining oshishiga olib kelayotgan bo'lsa, teng huquqlilik asosida olib borilayotgan iqtisodiy hamkorlik, jalb etilayotgan investitsiyalar mamlakat iqtisodiyoti va aholi turmush darajasining o'sishida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYODLAR

Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda". "O'qituvchi" 2021

Sh.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" 2017

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 iyuldag'i PF-111-sonli "Ma'muriy islohatlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 avgustdag'i PF-190-sonli "Saudiya Arabistoni Podsholigi fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasiga kirish rejimini yanada soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonuni

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 martdag'i 172-sonli "Haj ziyoratini tashkil ertish to'g'risida"gi qarori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyundagi 364-sonli "Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonni Taraqqiyot strategiyasi"

Tolipov .Sh.M "Fors ko'rfazi neft eksporti qiluvchi mamlakatlari ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari" /Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Diss.T.2001.-B.31.

Mirhamidova.M. "O'zbekistonning an'anaviy hamkor davlatlari bo'lgan Ko'rfaz arab davlatlari mamlakatimiz bilan mustaqillikning ilk yillardan yaqindan do'stona munosabatlarni o'rnatgan.". /O'za.2023.25 iyun

Xalq so'zi gazetasi 1992 yil 21 fevral . 38-son (289)

Xalq so'zi.2022 yil.18 avgust. № 177-178-son

To'rayeva O, Hasanova. S. "Islom dining taqalishi va uning tarbiyaga ta'siri" Central Asian academic journal of scientific research. Juranali 148-B